YAHUDIYLIK DINIY MANBALARI SHAKLLANISHI TARIXI: NEVIIM KITOBI

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРЕЙСКИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ПИСАНИЙ: КНИГА НЕВИИМА

THE HISTORY OF THE FORMATION OF JEWISH RELIGIOUS SCRIPTURES: THE BOOK OF NEVIIM

Odiljon ERNAZAROV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
PhD in history, Associate Professor of the UNESCO Chair on religious studies and the comparative study of world religions,
o.ernazarov@iiau.uz,
11 A.Kadiri, Tashkent 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2024/2/7

Annotatsiya: *Yahudiylik diniy manbalarining aksariyat qismini jamlagan to‘plam TaNaX deb nomlanadi. TaNaX tarkibidagi birinchi qism Tavrotga 5 ta, ikkinchi qism Neviimga 8 ta va uchinchi qism Ketuviimga 11 ta kitob to‘g‘ri keladi. Yahudiylik e’tiqodiga ko‘ra, mazkur kitoblar payg‘ambarlarga vahiy qilingan yoki payg‘ambarlar vasiyati asosida shakllantirilganligi jihatidan “muqaddas” (kanonik) hisoblanadi.*

TaNaX tarkibidagi “Neviim” bo‘limi kitoblari yahudiylik tarixini payg‘ambarlar obrazida yoritib bergani uchun uni din tarafdorlari yuksak izzat-hurmat qilinadi. Neviim bo‘limi shartli ravishda ikki qismga taqsimlanadi: «Birinchi Payg’ambarlar” (Neviim Rishonim) va «Keyingi Payg’ambarlar” (Neviim Aharonim). Bu bo‘linish payg’ambarlar xronologiyasiga ko‘ra TaNaXda ularning nomlari paydo bo‘lish tartibini hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Neviim tarkibidagi kitoblarda uchraydigan umumiy xususiyat, bu – ularning yozuv uslubidir. Yana bir umumiy xususiyat sifatida kitoblarning mazmunini ko‘rsatish mumkin. “Yunus” kitobidan tashqari, boshqa Neviim kitoblari, odatda, rivoyatlar, bashoratlar va payg’ambar haqidagi kichik ma’lumotlardan iborat. Neviim tarkibidagi matnlarni tanlashda asosiy mezon sifatida xalq og‘zaki ijodida eng ko‘p qo‘llaniladigan rivoyatlar tanlab olingan. Neviim kitoblarini kanonlashtirish jarayonida “banu isroilliklardan Ruach ha-Kodeshning ko‘tarilishi bilan payg’ambarlikning tugaganligi” haqidagi rivoyat, kitoblarning mazmuni va ular yozilgan davr, turli adabiyotlarda ushbu kitoblarga havolalar keltirilishi kabi mezonlar hisobga olingan. Neviim bo‘limi o‘zining yakuniy shaklini olgan sana – “Doniyor kitobi”ning so‘nggi boblari tugallangan deb taxmin qilinadigan miloddan avvalgi II asrga to‘g’ri keladi. TaNaX turli bosqichlardan o‘tib hozirgi ko‘rinishiga yetib kelgan. Sahifalangan va jildlangan shaklda Neviim kichik o‘zgarishlarga duch kelgan. Ushbu jarayonda soferim (muqaddas kitob yozuvchilari) faoliyati katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sir bosmaxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi bilan yo‘nalishini o‘zgartirdi. Neviimning bosmaxonada bosilgan dastlabki matnlari va bugungi kundagi variant o‘rtasida kitoblarning tartibi va nomlanishida muayyan farqlarni uchratish mumkin. Dastlabki ba’zi qo‘lyozmalarda Neviim bo‘limi kitoblari tartibi Talmudda keltirilgan ro‘yxatga mos kelsa, ba’zilarida Masoret (an’ana) matnlari bo‘yicha shakllantirilgan. Mikra (TaNaX) ilk marotaba 1488 yilda Italiyaning Sonchino shahrida, keyinroq 1493 yilda Breshiyada nashr qilinganda Masoret matnlari va Talmudda zikr qilinaganidan farqli tartibda bosib chiqarilgan. Keyinchalik, bu tartib asos sifatida qabul qilindi va bosmaxona tomonidan ommalashtirildi.

Ushbu maqolada TaNaX tarkibidan joy olgan Neviim bo‘limining shakllanish tarixi, undagi kitoblarning tartiblash shartlari va kanonlashtirish mezonlari hamda bosmaxona faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mazkur bo‘lim kitoblari bilan bog‘liq kechgan tarixiy jarayonlar tadqiq va tahlil etilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: *TaNaX, Qadimgi Ahd, Tavrot, Neviim, Ketuviim, Mikra, Septuaginta, Talmud, “Buyuk majlis”, Ruah ha-Kodesh, Ben Sira, soferim.*

Аннотация: *Коллекция, содержащая большинство религиозных писаний иудаизма, называется TaHaX. TaHaX состоит из 24 книг, из которых первая часть содержит 5 книг Торы, вторая часть содержит 8 книг на Невиим и третья часть содержит 11 книг на Кетувиим. Согласно иудаизму, эти книги считаются «священными» (каноническими), в том смысле, что они были ниспосланы пророкам или сформированы на основе воли пророков. Книги раздела «Невиим» в TaHaX пользуются большим уважением у евреев, поскольку они освещают историю иудаизма в лице пророков. Раздел Невиим условно разделен на две части: «Первые Пророки» (Neviim Rishonim) и «Поздние Пророки» (Neviim Aharonim). Это деление было произведено по хронологии пророков с учетом порядка появления их имен в TaHaX. Общей чертой книг Невиима является их стиль письма. Еще одной общей чертой является содержание книг. Помимо книги Ионы, другие книги Невиима обычно состоят из повествований, пророчеств и мелких подробностей о пророке. В качестве основного критерия отбора текстов на Невииме были выбраны повествования, наиболее употребляемые в устном творчестве еврейского народа. В процессе канонизации книг Невиима были определены определенные критерии, такие как повествование о «конце пророчества с возникновением Руах ха-Кодеш из Бану Исраэль», содержание книг и период в которых они были написаны, ссылки на эти книги даются в различной литературе. Окончательная версия раздела Невиим датируется II веком до нашей эры и относится к периоду, когда были завершены последние главы Книги Даниила. TaHaX достиг своей нынешней формы, пройдя различные этапы. Исходя из этого, Невиим в связанной форме TaHaX претерпел незначительные изменения. В этом процессе большое влияние имела деятельность*

соферимов (переписчиков Священных Писаний). Этот аспект и некоторые изменения стали более очевидными с появлением типографии. Между первым печатным текстом Невиима и текущей версией можно обнаружить некоторые различия в порядке и названии книг. В некоторых ранних рукописях порядок книг раздела Невиим соответствует списку, приведенному в Талмуде, а в некоторых он сформирован по текстам масоретским. Когда TaHaX был впервые опубликован в Сонкино, Италия, в 1488 году, а затем в Брешии в 1493 году, он был напечатан в другом порядке, чем тот, который упоминается в масоретских текстах и Талмуде. Позже эта процедура была принята за основу и популяризирована типографией.

Ключевые слова: *TaHaX, Ветхий Завет, Тора, Невиим, Кетувиим, Микра, Септуагинта, Талмуд, «Великое собрание», Руах ха-Кодеш, Бен Сира, соферим.*

Abstract: *The collection containing most of the religious scriptures of Judaism is called TaNaX. TaNaX consists of 24 books, of which the first part contains 5 books in the Torah, the second part contains 8 books in Neviim and the third part contains 11 books in Ketuviim. According to Judaism, these books are considered "sacred" (canonical) in terms of the fact that they were revealed to the prophets or formed on the basis of the will of the prophets.*

The books of the Neviim section of the TaNaX are highly respected by Jews because they illuminate the history of Judaism in the form of prophets. The Neviim section is conventionally divided into two parts: "First Prophets" (Neviim Rishonim) and "Later Prophets" (Neviim Aharonim). This division was made according to the chronology of the prophets, taking into account the order in which their names appear in the TaNaX. A common feature found in the Neviim books is their writing style. Another common feature is the content of the books. Apart from the book of Jonah, the other books of Neviim usually consist of narratives, prophecies, and small details about the prophet. As the main criterion for the selection of the texts in the Neviim, the narratives that are most used in oral creativity among the Jewish people were selected. In the process of canonization of the books of Neviim, certain criteria were defined, such as the narration about "the end of the prophethood with the rise of the Ruach ha-Kodesh from Banu Israel", the content of the books and the period in which they were written, references to these books are given in various literature. The final version of the Neviim section is dated to the 2nd century BC, referring to the period when the last chapters of the Book of Daniel were completed. TaNaX has reached its current form through various stages. In paginated and bound form, Neviim underwent minor changes. In this process, the activity of the soferim (scriptural writers) had a great impact. This effect and certain changes became more obvious when the printing house was established. Some differences in the order and naming of the books can be found between Neviim's first printed text and the current version. In some early manuscripts, the order of the books of the Neviim section corresponds to the list given in the Talmud, while in some it was formed according to the texts of the Masoretic. When the TaNaX was first published in Sonchino, Italy in 1488, and later in Brescia in 1493, it was printed in a different order than that mentioned in the Masoretic texts and the Talmud. Later, this procedure was adopted as a basis and popularized by the printing house. In this article, the history of the formation of the Neviim chapter, which is a part of TaNaX, the conditions of classification and canonization criteria of the books in it, as well as the establishment of the printing house, the past historical processes related to the books of this chapter are researched and analyzed.

Keywords: *TaNaX, Old Testament, Torah, Neviim, Ketuviim, Mikra, Septuagint, Talmud, "Great Assembly", Ruach HaKodesh, Ben Sira, Soferim.*

KIRISH

"TaNaX" yahudiylik muqaddas yozuvlarini ibroniycha nomlanishi sifatida qabul qilingan. Yahudiylik diniy manbalarining asosiy qismi TaNaX tarkibiga kirgan. Dinshunoslikka oid ba'zi adabiyotlarda TaNaX xristianlik muqaddas manbalari tarkibiga kirgan "Qadimgi Ahd" qismiga to'g'ri kelishi haqida fikrlar uchraydi. Yahudiy olimlari esa ushbu fikrga qarshi chiqib, TaNaX va Qadimgi Ahd tarkibidagi kitoblar shakllanish tarixi, tuzilishi va diniy manbalar orasida joylashuvi jihatidan keskin farq qilishini ta'kidlab keladilar.

"TaNaX" so'zi yahudiylik muqaddas yozuvlarining uch asosiy qismi – Tavrot (Musoning besh kitobi), Neviim (payg'ambarlar) va Ketuviim (yozuvlar) so'zlarining bosh harflaridan kelib chiqqan. Milodiy sananing boshlariga qadar yahudiylik tarixida "TaNaX" iborasi qo'llanilmagan, balki ushbu ibroniy matnlar ko'pchilik tomonidan o'qilgani uchun "Mikra" so'zi ishlatilgan. "TaNaX" atamasi dastlab yahudiylik ilohiyotining o'rta asarlarga oid asarlarida qo'llanilgan. TaNaX olam va odamning yaratilishi, ilohiy ahd va amrlar hamda yahudiy xalqi vujudga kelishidan Ikkinchi ibodatxona davri (miloddan avvalgi 516 – milodiy 70-yillar) boshigacha bo'lgan tarixni tasvirlaydi.

TaNaX 24 kitobni o'z ichiga oladi. Kitoblar tarkibi "Qadimgi Ahd"ning protestantlik oqimiga oid variantiga mos kelib, faqat kitoblarning joylashuvida farq kuzatiladi. "Qadimgi Ahd"ning katolik va pravoslavlik yo'nalishlariga oid varianti esa "Septuaginta" (TaNaX tarkibiga kirgan kitoblarning yunon tiliga tarjima qilingan varinati) asosida shakllantirilgani sababli kitoblar sonida farqlar uchraydi.

TaNaXning hozirgi yakuniy tarkibi shakllanish davri haqida yagona ilmiy fikr mavjud emas. Balki bu borada bir tomon TaNaXning yakuniy tarkibda shakllanishini Xasmoniylar sulolasi (miloddan avvalgi 140-37) davrida yuz berganligini, boshqa tomon esa uni milodiy II asrga qadar sodir bo'lmaganligini ta'kidlaydilar. Talmudga ko'ra esa TaNaXning aksar qismi "Buyuk majlis"

(Great Assembly)[1] kishilari tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, bu vazifa miloddan avvalgi 450-yilda bajarilgan, shunday buyon ushbu jamlanma o‘zgarmay saqlanib kelmoqda.

MAQSAD VA VAZIFA

TaNaX tarkibidan joy olgan Neviim bo‘limining shakllanish tarixi, undagi kitoblarning tartiblash shartlari va kanonlashtirish mezonlari hamda bosmaxona faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mazkur bo‘lim kitoblari bilan bog‘liq kechgan tarixiy jarayonlarni tadqiq va tahlil qilishdan iborat.

USLUBLAR

Tadqiqot jarayonida yahudiylik manbalari shakllanishiga oid tarixiy-qiyosiy, manbalar tarkibini tadqiq etish bo‘yicha strukturaviy-tipologik yondashuv hamda yahudiylik ta’limotida muhim o‘ringa ega Neviim kitobi voqealarining germenevtik hamda deduksion tahlil etish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

TaNaX tarkibi uch qismdan tashkil topgan bo‘lib, ular Tavrot, Neviim va Ketuviimdir va ular jami 24 kitobni qamrab olgan. Yahudiylik e’tiqodiga ko‘ra, mazkur kitoblar payg‘ambarlarga vahiy qilingan yoki payg‘ambarlar vasiyati asosida shakllantirilganligi jihatidan “muqaddas” (kanonik) hisoblanadi. TaNaX tarkibidagi “Neviim” bo‘limi kitoblari yahudiylik tarixini payg‘ambarlar obrazida yoritib bergani uchun din tarafdorlari yuksak izzat-hurmat qilinadi. Neviim bo‘limi 8 ta kitobdan iborat ekanligi rasman qabul qilingan bo‘lsa-da, bu bo‘limda jami 19 ta alohida kitob mavjud bo‘lib, ulardan 15 tasi to‘g’ridan-to‘g’ri payg’ambar nomi bilan atalgan (Yoshuadan Malakigacha). Kitoblarda Muqaddas zaminga kirishdan tortib Bobil surguniga qadar bo‘lgan jarayonlar tasvirlangan. Ushbu kitoblarning joylashuvi odatda xronologik tartibda amalga oshirilgan. Yoshua bilan boshlanadigan va Malaki kitobi bilan tugaydigan kitoblar o‘z navbatida ichki bo‘linishga ham uchragan. Yahudiy adabiyotida keyinroq paydo bo‘lgan, deb taxmin qilingan bu toifaga ko‘ra, Neviim bo‘limi shartli ravishda ikki qismga taqsimlanadi: “Birinchi Payg’ambarlar” (Neviim Rishonim) va “Keyingi Payg’ambarlar” (Neviim Aharonim). Bu tafovut payg’ambarlarning xronologik tartibidan ko‘ra TaNaXda paydo bo‘lish tartibini hisobga olgan holda amalga oshirilgan *(Bandstra, B. L., 1995:187)*. Xristian kanonini hisobga oladigan bo‘lsak, yahudiy kanonining Yoshua, Hakamlar, Sulaymon va Shohlar kitoblarini o‘z ichiga olgan Neviim Rishonim qismi “qonuniy tarix” deb nomlangani va boshqa kitoblarni o‘z ichiga olgan “Neviim Aharonim” qismi “payg’ambarlik kitoblari” deb atalganini ko‘rish mumkin. Yahudiylik adabiyoti Neviim bo‘limidagi kitoblarda qo‘shimcha bo‘linish va toifalanishga e’tibor qaratmay, bu kabi bo‘linishlar xristiancha talqinga egaligi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra, “Keyingi payg’ambarlar” bo‘limida Ishayo, Yeremiyo va Hizqiyoni o‘z ichiga olgan kitoblar va “Kichik payg’ambarlar” yoki “O‘n ikki payg’ambar” (o‘n ikki alohida kitob) nomi mavjud bo‘lgan ikkinchi to‘p kitoblarga bo‘lingan. Ism berishda payg‘ambarlikning katta yoki kichikligi emas, balki kitoblarning hajmi hisobga olingan. Oxirgi qismni (o‘n ikki kitob) tavsiflash uchun ishlatiladigan atamalar turli manbalarga ega. Shulardan biriha ko‘ra, “o‘n ikki” atamasi Leningrad kodeksidagi Malaki kitobining oxirgi jumlasidan keyingi va Bobil Talmudida eslatib o‘tilgan “o‘n ikki” iborasiga asoslangan bo‘lsa (*Webber, A., 1998:14)*, “Kichik payg’ambarlar” iborasi lotin manbalaridagi kitoblarning uzunligidan kelib chiqib foydalanila boshlangan *(Schart, A, 2012:806)*. Shuning uchun, ushbu bo‘limdagi kitoblarga “kichik” deb murojaat qilish nasroniylikcha talqinlarga asoslanib, yahudiylik adabiyotlarida bunday tasnif uchramaydi. Biroq, Bobil Talmudida “Trey Asar” (O‘n ikki kitob) bo‘limidagi kitoblar kichik hajmda bo‘lganligi sababli ularni yo‘qotmaslik uchun birgalikda yozilganligi haqida ma’lumot mavjud (*Webber, A., 1998:14)*. Bundan kelib chiqqan holda, Talmuddagi ushbu ibora nasroniylar uchun “katta va kichik”ka ajratishga asos bo‘lganligini aytish mumkin.

Neviim tarkibidagi kitoblarda uchraydigan umumiy xususiyat, bu – ularning yozuv uslubidir. Ya’ni, Tavrotda ham vaqti-vaqti bilan qo‘llanilgan she’riy matnlar Neviimda ko‘proq uchraydi *(Van der Woude, A, 2005:103; Rogerson, J. W., & Davies, P., 1989:174)*. Yana bir umumiy xususiyat sifatida kitoblarning mazmunini ko‘rsatish mumkin. “Yunus” kitobidan tashqari, boshqa Neviim kitoblari, odatda, rivoyatlar, bashoratlar va payg’ambar haqidagi kichik ma’lumotlardan iborat. Ularda ifodalash uchun foydalanilgan tilda o‘xshash va keng ravishda “Rabbiy aytadi (ko amar Yahve)” iborasi ko‘p takrorlanadi *(Van*

[1] Buyuk majlis (Anshei Knesset HaGedolah / The Men of the Great Assembly”) – “Buyuk sinogoga” yoki “sinod” deb ham ataladi. Yahudiylik an’anasiga muvofiq, bu majlis Ikkinchi ibodatxona (miloddan avvalgi 516 – milodiy 70 yy.) davridan Ellinistik (miloddan avvalgi 323 –31 yy.) davrga qadar yashagan jami 120 nafar adib, donishmand va payg‘ambarlardan tuzilgan holda faoliyat ko‘rsatgan.

der Woude, A, 2005:309-310). Turli vaqt ichida yozilgan kitoblarning kanonga kiritilishi uchun ba'zi mezonlar qo'llanilgan. Mezonlarga javob bermagan kitoblar kanondan chiqarilgan. Biroq, kitoblarni kanonizatsiya qilish stolda mezon qo'yish va keyin bu mezonlarni kitoblarga qo'llash orqali sodir bo'lmagan, aksincha, biz tabiiy tanlanish deb ta'riflashimiz mumkin bo'lgan jarayon natijasida yuzaga kelgan.

Kanonizatsiya mezonlari. Og'zaki an'ana ancha ustun va muhim bo'lgan yahudiylar jamoasi uchun yozma matn yaratish uzoq vaqtni talab qilgan. Og'zaki ijodda o'zgarish va o'zgarishga ochiq bo'lgan iboralarni o'ziga xos va aniq matn holiga keltirish qiyinligi ham bu jarayonning uzoq davom etishiga olib kelgan. Matnlarni aniqlashda xalq orasida og'zaki ijodda eng ko'p qo'llaniladiganlari tanlab olingan. Shu nuqtai nazardan, matni va hikoyasi muvaffaqiyatli va kuchliroq bo'lgan matn qayta-qayta o'qilishi va ko'chirilishi ehtimoli ko'proq. Ruxsat etilgan matnni yaratish uchun muayyan tamoyillar va vaqt oralig'ini aniqlash muqarrar bo'lib qolgan. Darhaqiqat, bugungi kundagi kitoblar og'zaki ijoddagi boshqa matnlardan ajralib turish uchun ma'lum bir tartib-qoidadan o'tgan, deyish mumkin *(Ben Zvi, E., 2006:43)*. Kanonni aniqlashda isroilliklardan Ruach ha-Kodesh[2]ning ko'tarilishi bilan bashoratning tugashi, kitoblarning mazmuni va ular yozilgan davr, turli adabiyotlarda ushbu kitoblarga havolalar kabi mezonlar hisobga olingan.

Payg'ambarlik davrining tugashi. Yahudiy an'analarida payg'ambarlik Malaki bilan tugagan, keyin Ruah ha-Kodesh bani isroilliklardan ko'tarilgan *(Zeitlin, S., 1952:48)* va shuning uchun Neviim kitoblari ham Malaki bilan tugagan, deb qabul qilinadi. Taxminan miloddan avvalgi 500-450 yillar oralig'ida payg'ambarlik tugagan va Neviim kanoni darhol yopilgan deb taxmin qilinadi. Bu sanadan keyin hech qanday haqiqiy payg'ambar kelmagani va sahih payg'ambarlik adabiyoti yaratilmaganiga ishonishgan. Yahudiy ruhoniylarining fikriga ko'ra, payg'ambarlik instituti Haggay, Zakariyo va Malakiylar bilan yakunlangan, ularning payg'ambarligi miloddan avvalgi VI-V asrlarga tegishli bo'lib, so'ngra hokimiyat ravvinlarga o'tgan (*Webber, A., 1998:12)*. Iosifning so'zlariga ko'ra, payg'ambarlikning isroilliklardan ajralishi Fors imperatori Artakserks Kserks I dan mag'lub bo'lib, hokimiyatdan ayrilgan paytda sodir bo'lgan. Bu voqeani miloddan avvalgi 465-464 yillarga to'g'ri keladi.

Taxminlarga ko'ra, "payg'ambarlik tugadi" degan fikr fors davrida paydo bo'lgan. Aslini olganda, bu g'oya birinchi bo'lib "I Makkabiylar" apokrifik kitobida uchraydi. Payg'ambarlikning Fors davrida tugashi qabul qilinishi bilan ellinistik davrda paydo bo'lgan barcha asarlar vahiyga asoslangan asarlardan alohida saqlangan. Apokrif hisoblangan I Makkabiy kitobi Hasmoniylar sulolasi davriga to'g'ri keladi (Miloddan avvalgi 140-116). Shunday qilib, fors davrida tugagan deb qaraluvchi payg'ambarlik matnlari keng tarqalib, Hasmoniylar davrigacha qo'llanilgan va buning natijasida Neviim tarkibiga kira olgan bo'lsa, Fors davridan keyingi Hasmoniylar davrida yaratilgan matnlar ushbu to'plamga kiritilmagan. Shu sababli, tadqiqotchilar Neviim bo'limining matnli tugallanishi Hasmoniy davrining mahsuli degan xulosaga kelishdi.

Neviim kitoblarining yozilish vaqti. Oldingi bobda zikr qilingan va Yavna kengashi[3]da tilga olingan "qo'lni iflos qilish" bahsining manbai sifatida o'sha kitoblar yozilib, omma orasida keng tarqalib ketgan sanani ko'rsatish mumkin. Muayyan davrdan keyin yozilgan kitoblarning kanonikligi bahsli mavzuga aylangan, jumladan, Ben Sira kabi kitoblar shu sababli kanonda o'z o'rnini topa olmagan. Bu shuni ko'rsatadiki, Neviim eramizdan avvalgi 180-yilgacha, kanonda eng ko'p qayd etilgan kitoblardan biri bo'lgan Ben Siradan oldin tugallangan va yakuniy shaklga kelgan.

An'anaga ko'ra payg'ambar deb ataladigan Doniyor haqidagi "Doniyor kitobi" Neviim o'rniga Ketuvimda joylashganligi ham bahsli masala sanaladi. Sid Z. Leymanning so'zlariga ko'ra, bu holat "Doniyor kitobi" hozirgi ko'rinishida paydo bo'lgunga qadar "Neviim" qismini kanonizatsiya qilish allaqachon tugaganligi va kanon yopilganligi bilan bog'liq. Shunday qilib, "Neviim" qismi o'zining yakuniy shaklini olgan sana – "Doniyor kitobi"ning so'nggi boblari tugallangan deb taxmin qilinadigan miloddan avvalgi 2-asrga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Neviim keng tarqalgan kitoblar bilan yakunlangan paytda, Doniyor kitobi Neviimda o'ziga joy topa olmagan, chunki u hali yakuniy shaklini olmagan edi. Qumron yodgorliklari, Matto Injili va Iosifda qilingan havolalarga nazar tashlasak, Doniyorning o'sha davr jamiyatida yahudiy payg'ambari sifatida qabul qilinganini ko'rish mumkin.

[2] O'zbek tiliga Muqaddas Ruh deb tarjima qilishimiz mumkin bo'lgan tushuncha vahiyning eng muhim vositachilaridan biriga ishora qiladi. "Ruah" so'zi Tanaxda jami 389 marta ishlatilgan, ularning aksariyati Neviim bo'limida. Garchi Ruah ha-Kodesh ko'pincha ravvinlar tomonidan payg'ambarlar bilan bog'lab tushuntirilgan bo'lsa-da, ikkalasi bir xil ma'noni bildirmagan.

[3] TaNaXni kanonizatsiya qilish uchun turli sanalar aytilgan bo'lsa-da, ayniqsa so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida, Yavne (Jamnia-Yamnia) kengashida yahudiy kanoni yakuniy shaklga kelganligi haqidagi fikr ustuvorlik kasb etmoqda. Yavne kengashi milodiy 100-110 yillarda bo'lib o'tgan va unga ravvin Gamliel raislik qilgan. Kengash natijasida rasmiy ekanligi bildirilgan kanon, Yavnega tashrif buyurgan ravvinlar tashabbusi bilan to'plangan va aniqlangan kitoblardangina iborat bo'lmagan. Aksincha, ko'p qismi omma tomonidan o'qiladigan va hurmatga sazovor bo'lgan kitoblarning yo'qolishining oldini olish maqsadida yig'ilgan matnlardan tashkil topgan.

Biroq, Doniyor kitobining Neviim o‘rniga Ketuvimda joylashishi Neviim kanoni Doniyordan oldin yopilganligi bilan izohlanadi.

Neviim kitoblarida aniq eslatib o‘tilgan oxirgi voqea Doro hukmronligining 5-yilida (miloddan avvalgi 517-yil) sodir bo‘lgan va bu sanadan keyin hech qanday aniq voqealar qayd etilmagan. Shunga asoslanib, Neviim kanonining sanasini biroz oldinroq aniqlash mumkin bo‘ladi va ba’zi tadqiqotchilar kanon miloddan avvalgi 517-200 yillar oralig’ida tugallangan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaganlar. Leyman o‘z kitobida bu sanalar oralig‘ini yanada yaqinlashtirib, Neviim kanoni miloddan avvalgi 400 yilgacha yopilganligini uqtiradi. Buning sababi, «agar bu sanada kanon hali ham ochiq bo‘lsa, Ezra, Neximiyo va Solnomalar kitoblari Neviimga kiritilishi kerak edi» degan da’vodir. Shunday qilib, u kanon miloddan avvalgi 518-400 yillar oralig’ida tugallangan degan fikrni himoya qiladi. Boshqa tomondan, apokrif hisoblangan “II Makkabilar kitobi”da “payg‘ambarlik yozuvlari” haqida to‘g’ridan-to‘g’ri eslatib o‘tilganligi (garchi bu yerda Naximiyoga tegishli shaxsiy kolleksiya aytilganlar ham bo‘lishi mumkin) Neviim kanoni miloddan avvalgi 445-444 yillarda ma’lum bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Leyman sanani yana 50 yil orqaga surib, kanon miloddan avvalgi 500 va 450 yillar orasida tugallangan degan fikrni himoya qilgan.

Yuqorida eslatib o‘tilgan jihatlar Neviim kitoblarining yozib qo‘yilganligi haqida bo‘lib, ikkita muqova orasiga jamlangan davrni ifoda qilmaydi. Bu ikkisi turli vaqtlarda sodir bo‘lgan. Kanonning yopilishi bilan nima nazarda tutilganligi va shunga mos ravishda berilgan sanalar – kitoblar mazmunida tasvirlangan davrda yahudiy xalqiga yetkazilgan xabarlar (nubuvvat) ning tugallanganligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bu yerda gap shundaki, Neviimning oxirgi kitobi bo‘lgan Malaki kitobining so‘nggi yozuv versiyasi miloddan avvalgi 200 yilga tegishli bo‘lsa-da, kitobdagi xabar miloddan avvalgi 400 yil va undan oldin isroilliklar bilan yuz bergan voqealarni ifoda qilgan. Neviim kanonining so‘nggi shakli, uning yozilishi va ikki muqova orasiga qo‘shilishi keyinroq, miloddan avvalgi 200-yillarda sodir bo‘lgan.

Kitoblarga ishoralar. Payg’ambar so‘zlarining og’zaki ravishda yozib qo‘yilgani yoki saqlanib qolganligi bo‘yicha ba’zi jihatlar TaNaXdagi bir nechta misollarga e’tibor qaratishga undaydi. Ulardan birinchisiga ko‘ra, Xudo Ishayo payg‘ambarga aytganlarini yozib qo‘yishni va uni saqlab qolishni buyurgan: “Endi borib, mening aytganlarimni ularning oldidagi lavhaga yozib, kitobga kirit, toki u kelajakda doimiy guvoh bo‘lsin” *(Bibliya, “Ishayo” 30:8)*. Yana bir misolni Xudo Yeremiyoga quyidagi kabi amr berib, undan nima deganini yozishni so‘raganida ko‘ramiz: “Yahudiya shohi Yo‘shiyo o‘g‘li Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yilida Egamiz Yeremiyoga shunday dedi: Yo‘shiyo davridan boshlab, Isroil, Yahudo va g‘ayriyahudiylar to‘g‘risida senga aytayotgan hamma narsani yozib qo‘yish uchun o‘ramni ol” *(Bibliya, “Yeremiyo” 30:1-2)*. Qolaversa, avvalgi payg‘ambarlarga yuborilgan ogohlantirishlar xalq orasida og‘zaki ma’lum bo‘lganiga dalil sifatida “Payg‘ambar orqali bandalarimga buyurgan so‘zlar va hukmlarim ota-bobolaringizdan yetib kelmadimi?” Ular o‘girilib: “Xudoi taolo! Bizning yo‘llarimizga va amallarimizga qarab, u biz uchun o‘ylagan narsani qildi”, jumlasi ko‘rsatilgan *(Dempster, S. G., 2012:73)*.

Neviim bo‘limining kitoblari orasida bir-biriga ishora qiluvchi bo‘limlar yoki jumlalar mavjud emas. Biroq, Yeremiyo, 26:18 va Mika, 3:12 jumlalari o‘rtasidagi bog’liqlik aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa-da, bu yozma asarga ishora yoki og’zaki urf-odatlardan kelib chiqqan ma’lumotlarga ishora qilish haqida hech qanday aniq bayonot yo‘q. Bu ma’lumot surgundan oldingi davrda Tavrotdan boshqa kanonik kitob bo‘lmaganiga ishora sifatida ham olinadi. Biroq, bu Amos, Ho‘sheya, Ishayo, Yeremiyo kabi payg‘ambarlar haqidagi kitoblar o‘sha paytda mavjud bo‘lmagan va keyingi davrda yaratilgan degani emas. Balki, bu kitoblar o‘zining kanonik maqomini surgundan oldingi davrda emas, balki undan keyin egallagan *(Leiman, S. Z., 1976:25-26)*.

Ketuvim bo‘limida Neviim bo‘limining kitoblariga ba’zi ishoralarni uchratish mumkin. II Solnomalar 32:32[4] oyatida Ishayo kitobiga havola bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u yerda Ishayo kitobining aynan kanonik maqomda ekanligi bayon qilinmagan. Qabul qilish mumkinki, Doniyor, 9:2 oyati, xususan, Yeremiyoga, 25:12[5] oyati orqali butun Neviim kitoblariga taalluqlidir.

TaNaXdagi misollarga qo‘shimcha ravishda, apokrifik kitoblardan biri Ben Sirada tugallangan Neviim bo‘limiga ba’zi ishoralarni ko‘rish mumkin. Ben Sira, 46:1 - 49: 13 boblari orasida, muallif payg’ambarlarning barcha kitoblarini kanonik tartibda yaxshi bilishi va 49:10 da “shnem asar ha-neviim” dan foydalanganligini ta’kidlagan. Shuningek, u payg’ambarlarning 12 kitobidan iborat bo‘lgan Neviimning so‘nggi qismini bir butun sifatida nomlagan. Ba’zi tadqiqotchilar miloddan avvalgi 200, ba’zilari esa miloddan avvalgi 300 yillarga tegishli bo‘lgan Ben Sira kitobining muallifi Neviim

[4] “Midiyalik Axashverashning o‘g‘li Doro Xaldeylar shohi bo‘ldi. “Men, Doniyor, uning hukmronligining birinchi yilida, Muqaddas Yozuvlardan Rabbiy Yeremiyo payg’ambarga aytganlarining soni yetmishta ekanligini, bu son Quddus vayron bo‘ladigan yillar sanasi ekanligini tushundim”.

[5] “Ammo yetmish yil o‘tgach,— demoqda Egamiz,— Bobil shohi va uning xalqini, Xaldiylar yurtini gunohlari uchun jazolayman va ularni abadiy vayronaga aylantiraman”.

bo‘limi kitoblarini shu tarzda o‘zlashtirganiga asoslanib, tadqiqotchilar Neviim kanonining yakunlanishi miloddan avvalgi 333-200 yillar oralig’ida bo‘lgan deb hisoblashadi. Bundan tashqari, Ben Sira kitobi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Ben Sira Rut, Qo‘shiqlar qo‘shig’i, Ester va Doniyor kitoblaridan tashqari TaNaXning barcha kitoblaridan ta’sirlangan va undan foydalangan.

Kitoblardagi tarixiy voqealar. Garchi kitoblar mavzu bo‘yicha o‘xshash tarkibni taklif qilsa-da, hikoya va uslubdagi o‘ziga xos masalalar bizga kitoblar tuzilgan va yakuniy shaklni olgan davrlar haqida ma’lumot beradi. R. E. Klement Neviim adabiyotini tashkil etuvchi kanon jarayonidagi uchta burilish nuqtasini eslatib o‘tadi. Ulardan birinchisi miloddan avvalgi 722 yilda ossuriyaliklar tomonidan shimoldagi Isroil shohligining vayron qilinishi, ikkinchisi miloddan avvalgi 587 yilda janubdagi Yahudo qirolligining bobilliklar tomonidan bosib olinishi hisoblanadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, uchinchisi, taxminan miloddan avvalgi 539 yilda Forslar hukmronligi ostida Quddusning qayta tiklanishidir. Ushbu bayonotning asosiy sababi, kitoblarning mazmuni asosan ushbu voqealar ta’sirida shakllantirilganligi bo‘lishi mumkin.

Neviim kanonining oxirgi shakliga kelishi miloddan avvalgi 200-yillarda tugallanganligi haqida fikr keng tarqalgan. Bu fikrning sabablaridan biri, kitoblarda Makkabiylar ta’sirining yo‘qligi, biz uni keyingi davrning hukmron mentaliteti sifatida qabul qilishimiz mumkin. Shunga ko‘ra, Neviim kitoblarini yakunlash Makkabiylar davridan oldin tugallangan, degan fikrga kelingan.

An’anaviy yahudiylikdan birinchi bo‘lib ajralib chiqqan va tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladigan samariyaliklarning yahudiylardan alohida o‘z Tavrotiga ega bo‘lishi va bu Tavrot bilan yahudiy Tavroti o‘rtasidagi farqlar tadqiqotchilarning e’tiborni tortgan. Samariyaliklarning muqaddas kitobi Samariya Tavroti Musoga nozil qilingan deb hisoblangan beshta kitobdan iborat. Ular Muso payg’ambardan keyingi davrda hech qanday payg’ambar kelmaganiga ishonganlari uchun TaNaXda mavjud bo‘lgan Neviim va Ketuvim kitoblarini qabul qilmaydilar. Samariyaliklarning mavjud Tavrotlari ustida olib borilgan tadqiqotlarda, bu versiyaning eng qadimgi sanasi Ikkinchi ibodatxona davri (miloddan avvalgi 516 – milodiy 70-yillar) bo‘lishi mumkinligi va shuning uchun u TaNaXdan eskiroq matn bo‘lishi mumkin emasligi bildirilgan. Biroq, ba’zi cherkov otalari va ayniqsa samariyaliklar buni qabul qilmaydilar va Samariyalik Tavrotni yahudiy Tavrotidan oldingi davrga to‘g’rilaydilar *(Gerçekcioğlu, F., 2017:6-7)*.

Samariyaliklarning paydo bo‘lishi miloddan avvalgi 3-2-asrlarga to‘g’ri kelgan bo‘lsa-da, parchalanish nuqtalari ancha oldin sodir bo‘lgan va bu sanalarda faqat ba’zi tanaffuslar yuz bergan. Shunga ko‘ra, an’anaviy yahudiylik samariyaliklar va yahudiylar o‘rtasidagi muammolar va kelishmovchiliklarning boshlanishini miloddan avvalgi 722 yilda Ossuriya istilosi va surgun bilan bog’laydi. Ba’zi zamonaviy tadqiqotchilar samariyaliklarning asosiy oqimdan ajralib chiqishi miloddan avvalgi 432 yilga, ba’zilari esa miloddan avvalgi 333 yilga to‘g’ri kelishini ta’kidlaganlar *(Leiman, S. Z., 1976:25-26)*. Ushbu qarashni ilgari surganlarning fikriga ko‘ra, Neviim va Ketuvim kitoblarining kanonizatsiyasi samariyaliklar bilan tortishuvdan keyin sodir bo‘lgan. Chunki ikkala tomon ham ajralishdan oldin birga yashagan umumiy qadriyatlarga ega jamoalar hisoblangan. Bu tadqiqotchilarni bir tomondan kanonik maqomga ega bo‘lgan matnning boshqa tomonida hamkasbi bo‘lishi kerak degan fikrga olib keldi. Ularning fikriga ko‘ra, bu faqat Musoga tegishli bo‘lgan birinchi beshta kitobning Samariyalik kanoniga kiritilganligi va Neviim-Ketuvim kitoblarining hech biri kiritilmaganligining sababi bo‘lishi kerak. Shunday qilib, ular Neviim kanonining shakllanishini samariyaliklar ajralib chiqqandan keyingi davrga to‘g’rilashdi va kanonning shakllanishi miloddan avvalgi 5-4 asrdan oldin bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidladilar.

Kitoblarni saralash. Tavrotning ustuvorligi va uning kitoblari tartibi to‘g’risida barcha versiyalarda yakdil fikr mavjud bo‘lsa-da, yahudiy jamoalari o‘zlarining maqsadlari va tushunchalariga muvofiq keyingi kitoblarni turli xil tartibda shakllantirdilar. Shu munosabat bilan “Septuaginta”da nafaqat “Trey Asar” kitoblarini “Katta payg’ambarlar” deb nomlangan bo‘limdan oldiga qo‘yilgan, balki undagi kitoblar boshqacha tartibda sanab o‘tilgan. Shunga ko‘ra, Neviim kitoblari Masoret matnida Hoshea, Joel, Amos, Obadiyo, Septuagintada esa Hoshea, Amos, Mixa, Joel, Obadiyo tartibida keltirilgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, bitta kitob hisoblangan “Trey Asar” bo‘limidagi 12 ta kitob ilgaridan ma’lum bo‘lgan ersa-da, hozirgi standart shaklini nisbatan keyinroq olgan. Aytish mumkinki, kitoblarni tartibga solishda kitoblarning uzunligi va mazmuni, xronologik sabablar ham hisobga olingan. Boshqa tomondan, muallif payg’ambarlarning ikki eng keksasi hisoblangan va bir davrda yashagan Ho‘sheya va Amos haqidagi kitoblarga qaraydigan bo‘lsak, nisbatab yoshroq bo‘lgan Ho‘sheya xususidagi yozuvlar birinchi zikr qilinganligini ko‘ramiz. Xronologik jihatdan ikkinchi o‘rinda turishi kerak Amos kitobining boshlanishi va Yoel kitobining oxiri bir-birining davomi bo‘lganligi sababli Amos Yoeldan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Amos kitobi bilan kontekstga mos keladigan Obadiyo kitobi Amosning orqasida

joylashgan va birlikka erishishga harakat qilingan. Yunus va Nahum kitoblarining ketma-ketligi ikkala kitobda ham Nineviyaga ishora qilingani bilan bog'liq. Nahum, Xabakkuk va Zafaniyo keyingi davrlarda (taxminan miloddan avvalgi 7-asrning ikkinchi yarmida) payg'ambarlik faoliyatini olib borganlari uchun birin-ketin sanab o'tilgan. O'n ikki kitobdan iborat "Trey Asar" bo'limi oxirgi payg'ambarlar sifatida tilga olingan va payg'ambarlik tugallangan Xaggay, Zakariyo va Malakiy bilan yakunlangan. Septuagintadagi Amos va Yo'elning kitoblari orasiga Mikaning qo'yilgani, tartibda xronologiya bilan bir qatorda kitoblarning uzunligiga qo'shimcha ravishda e'tiborga olinganligini ko'rsatadi.

Septuagintadan keyingi nasroniylarning muqaddas kitobida Eski Ahd deb nomlangan TaNaX kitoblarining tartibi masoretik matndan farq qiladi. Tarix kitoblari, oyat kitoblari, katta va kichik payg'ambarlarni toifalarga ajratuvchi xristian kanoniga ko'ra, Yoshua, Hakamlar, Rut, Shomuil, Shohlar, Tarixlar, Ezra-Neximiyo va Esterning kitoblari "tarix kitoblari" hisoblanadi; Keyingi Ayub, Zabur, Hikmatlar, Voizlar va Qo'shiqlar qo'shig'ining keyingi kitoblari "oyat kitoblari" sifatida tasniflanadi. "Payg'ambar kitoblari" deb nomlangan bo'limda katta payg'ambarlar Ishayo, Yeremiyo va Hizqiyo bilan birga "Marsiyalar", Doniyor va Trey Asar kitoblari joylashgan. Bundan tashqari, ba'zi xristian yo'nalishlari (katolik va pravoslavlar) o'z qonunlariga yahudiylar apokrif deb hisoblaydigan kitoblarni kiritdilar. Ilk cherkov otalaridan biri bo'lgan Melito, Eski Ahd deb ataydigan bo'limning tartibi quyidagicha ekanligini aytadi: "...Men Sharqqa bordim va bu narsalar o'rgatilgan/o'rgatilgan joylarda bo'ldim va Eski Ahd kitoblarini o'rgandim. Men uni yozilganidek yuboraman. Ularning nomlari quyidagicha: Musoning besh kitobi; Ibtido, Chiqish, Sonlar, Levilar, Qonunlar. Yoshua, Hakamlar, Rut, Shohlarning to'rtta kitobi (Sulaymon I-II va Shohlar I-II), Solnomalar I-II, Zabur, Hikmatlar, Voiz, Qo'shiqlar qo'shig'i, Ayub. Payg'ambarlar; "Ishayo, Yeremiyo, 12 ta payg'ambar kitobi, Doniyor, Hizqiyo, Esdras". Origen quyidagi ro'yxatni keltiradi: "Kitoblar, yahudiylar aytganidek, alifbosiga ko'ra 22 ta bo'lib, ular quyidagicha sanab o'tilgan: Ibtido, Chiqish, Levilar, Sonlar, Qonunlar, Yoshua, Hakamlar va Rut, Shohlarning birinchi va ikkinchi kitoblari (Sulaymon I- II), Shohlar kitobining uchinchi kitobi va to'rtinchi kitob (Shohlar I-II), Solnomalar I-II, Esdrasning birinchi va ikkinchi kitoblari, Zabur, Hikmatlar, Voiz, Qo'shiqlar qo'shig'i, Ishayo, Yeremiyo, Marsiya va Yeremiyo, Doniyor, Hizqiyo, Ayub, Esterning maktubi. Va bulardan tashqari, Makkabiylar." Shunday qilib aytish mumkinki, kitoblarning tartibi vaqt o'tishi bilan o'rnatilib, turli diniy guruhlarda turli maqsadlarda tartibga solingan.

XULOSA

TaNaX turli bosqichlardan o'tib hozirgi ko'rinishiga yetib kelgan. Ikki jild orasiga qo'yib, oxirgi shakli berilganidan keyin ham, beixtiyor bo'lsa-da, kichik o'zgarishlarga duch kelgan. Bu masalada soferim (muqaddas kitob yozuvchilari) effekti inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Bu effekt bosmaxonaning paydo bo'lishi bilan yo'nalishini o'zgartirdi. Ammo bu o'rinda turli masalalar ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, bosmaxonada bosilgan dastlabki matnlar o'rganilar ekan, bosmaxonaning bugungi kundagi Neviim tartibi, kitoblarning kanondagi tasnifi va nomlanishiga aniq ta'siri haqida gapirish mumkin bo'ladi. Bosmaxonadan foydalanish samarasi, ayniqsa, kitoblarni buyurtma qilishda yaqqol ko'rinadi. Shunga ko'ra, bugungi Neviim kitoblari ro'yxati Talmudda tilga olingan tartibdan farqli bo'lishining sababi sifatida bosmaxonani ko'rsatadiganlar ham bor. Haqiqatda ba'zi dastlabki qo'lyozmalarda Neviim bo'limi kitoblari tartibi Talmudda keltirilgan ro'yxatga mos kelsa, ba'zilarida Masoret (an'ana) matnlari bo'yicha shakllantirilgan. Ravvin David Kimxi (vaf. 1235) Ishayo-Yeremiyo-Hizqiyo kitoblarini bugungi foydalanilayotgan tartibga keltirgan yahudiy olimlaridan sanaladi. Mikra (TaNaX) ilk marotaba 1488 yilda Italiyaning Sonchino shahrida, keyinroq 1493 yilda Breshiyada nashr qilinganda Masoret matnlari va Talmudda zikr qilinaganidan farqli tartibda bosib chiqarilgan. Shunday qilib, bu tartib asos sifatida qabul qilindi va bosmaxona tomonidan ommalashtirildi.

Bu borada e'tibor berish kerak bo'lgan yana bir masala shundaki, xristianlar dastlab TaNaXning o'rta asr sharhlarini va TaNaX bilan muvofiqlikni ifodalovchi ha-Mikraot ha-Gdolot kabi kitoblarni nashr etishgan. Bu kitoblarni tayyorlashda xristian noshirlar tomonidan yahudiylarning urf-odatlari va qarashlari hisobga olinmagan. Bundan tashqari, 1523 yilda ravvin Yitzhak Natan tomonidan tayyorlangan shunga o'xshash kitobning kirish qismida, muallif 1437-1448 yillarda nashr etilgan nasroniylar misolidan ta'sirlanmaganligini va yahudiycha dunyoqarash asosida nashr qilganligini tushuntirishga zarurat sezgan. Bu holat yahudiylarning muqaddas kitob adabiyotiga nasroniycha bosmaxonaning ta'sirini ko'rsatish nuqtai nazaridan yorqin misollardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Nashr ishlarida yuz bergan farqlanishlarning yana bir misoli sifatida, Maykl Avioz Neviim bo'limi kitoblarini nomlashda qo'llaniladigan Neviim Rishonim va Neviim Aharonim o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqotchilar bu farq qadim zamonlardan beri mavjud deb o'ylashsa-da, foydalanishni osonlashtirish uchun kiritilgan ilovalar aslida keyingi davrlarda

turli maqsadlarda ishlatilgan. Misol uchun, Neviim Rishonimning qo‘llanilishi birinchi marta TaNaXning Zakariyo kitobida qayd etilgan[6]. Bu tushunchani ishlatishdan maqsad “Zakariyo” kitobi 7:7 dan tushunilganidek, Birinchi ibodatxona davrida (miloddan avvalgi X-VI asrlar) yashagan payg’ambarni ifoda qilishdir. Biz tushungan tartibda tasniflash na apokrifik kitoblarda, na Septuagintada, na Xazal davri asarlarida mavjud emas[7]. Biroq Neviim Rishonim birinchi marta bosmaxonaga egalik qilgan oila tomonidan 15-asr oxirlarida Italiyaning Soncino bosmaxonasida bosilgan nusxalarda bo‘linish va foydalanishni osonlashtirish maqsadida bosmaxonada nomenklatura sifatida foydalanilgan. U keyingi nashrlarda mustahkam o‘rin oldi va TaNaX va hatto Neviim bo‘limining ajralmas qismiga aylandi. Muallif o‘z da’vosida bosmaxona Hazalda bu qo‘llanishni o‘z xohishiga ko‘ra ishlatib, chop etiladigan nusxaga moslashtirib, bugungi tartibni yaratganini aytadi. Taqdim etilgan ma’lumotlarni e’tiborga olsak, muallifning da’vosi o‘rinli ko‘rinadi, lekin Neviim Rishonim va Ahoronimning qo‘llanishi adabiyotda allaqachon mavjud bo‘lganligi sababli, bu amaliyot TaNaXga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan.

REFERENCES:

1. Bandstra, B. L. (1995). Reading the Old Testament: an introduction to the Hebrew Bible. Wadsworth Publ.
2. Ben Zvi, E. (2006). De-historicizing and historicizing tendencies in the Twelve
3. Dempster, S. G. (2012). Canon, Canonization. Dictionary of the Old Testament Prophets.
4. Gerçekcioğlu, F. (2017). Samiriliğin Ortaya Çıkışı ve Kutsal Metinler Işığında Erken Dönem Samiri-Yahudi İlişkileri. Basılmamış Yüksek Lisans Tezi, Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.
5. Good News Bible. – USA.: American Bible Society, 1992.
6. Leiman, S. Z. (1976). The Canonization of Hebrew Scripture: The Talmudic and Midrashic Evidence. Archon Books.
7. Prophetic Books: a case study of the heuristic value of a historically anchored systemic approach to the corpus of prophetic literature. Israel’s prophets and Israel’s past.
8. Rogerson, J. W., & Davies, P. (1989). The Old Testament World. CUP Archive.
9. Zeitlin, S. (1952). Is a Revival of a Sanhedrin in Israel Necessary for Modification of the Halaka? The Jewish Quarterly Review, 42(4).
10. Schart, A. (2012). Twelve, Book of the: History of Interpretation / Dictionary of the Old Testament Prophets, ed. Mark J. Boda ve J. Gordon McConville, Illinois: InterVarsity Press.
11. Van der Woude, A. (2005). Ancient Israelite and Early Jewish Literature. In Ancient Israelite and Early Jewish Literature. Brill.
12. Webber, A. (1998). A consideration of the dimensions of walls contained in Mishnah Bava Batra 1: 1. Journal for the Study of Judaism, 29(1).

[6] “Ajdodlaringizdek ish tutmanglar! Qadimgi payg’ambarlar (Neviim Rishonim) ularni ogohlantirib: “Qodir Rabbiymiz yomon yo’llaringizdan va yomon ishlaringizdan qaytarar”, - derdilar” (Zekeriya, 1:4).

[7] Adabiy jihatdan “Rabbiylarimizning xotiralari muborak /barakali bo’lsin” (Hakhameinu Zikhronam Liv’rakha) mazmunidagi Hazal (ibora) Mishna, Tosefta va Talmud ravvinlari uchun ishlatiladigan marhamatli so’z sanalgan. Hazal davri Mishna-Talmud davrini anglatadi. Hazal adabiyotida “Neviim Rishonim” Birinchi ibodatxona davri payg‘ambarlariga, “Neviim Aharonim” esa Ikkinchi ibodatxona davri payg‘ambarlariga (miloddan avvalgi V asr– milodiy I asrlar) nisbatan qo‘llanilgan.